

ALI BIN ABDULLOH SAMHUDIYNING “XULOSAT UL -VAFA BIAXBARIL DARIL MUSTAFA” ASARIDA BERILGAN ARABISTON YARIM OROLINING TARIXI OID MA’LUMOTLAR

Soxibova Umedaxon Shuxrat qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ali bin Abdulloh Samhudiyning hayoti, "Xulosat ul -vafa biaxbaril daril Mustafa" asarida Makka va Madina shaharlarining tarixi , tabiat, o'ziga xos xususiyatlari haqida , bu manba ilm fan rivojlanishiga hissasi va muqaddas manbaning ahamiyati katta ekanligi qayd etib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Tarix, qo'lyozma, hadis , toshbosma, tafsir, fiqh*

Bugungi kunda hukumatimizning yozma yodgorliklarni bir joyga toplash, ularni ilmiy asosda saqlash va o'rganish borasida qilayotgan g'amxo'rliqi tufayli Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida turli davrlardagi turfa sohalarni o'zida qamrab olgan ko'plab qo'lyozma, toshbosma kitoblar va tarixiy ahamiyatga ega hujjatlar saqlanmoqda. Ana shunday qadimiy yozma yodgorliklar orasida Ali bin Abdulloh as-Samhudiyning “Xulasat ul vafo biaxbari dari almustafa” (Rasululloh s.a.v. diyorlari tarixi haqida xabar beruvchi saralangan ixcham asar) asari alohida qimmatga egadir. Mazkur asar muallifi Ali bin Abdulloh as-Samhudi 844 hijriy (1440y) safar oyida Misrning Samhud degan joyida hozirgi yuqori Misrning “Qina” viloyatidagi “Abi Tisht” markaziga qarashli qismida faqihlar oilasida dunyoga keldi va shu yerda o'sib ulg'aydi. Allomaning otasi Abdulloh, akasi Abdurahmon Samhuddagi faqihlardan edilar. Bobosi esa, Samhudning Qozi kaloni edi.

Ali bin Abdulloh Samhudi 873 hijriy (1468) yilda Madinaga ko'chib borguniga qadar Misrdagi ilmiy muhitda tarbiyalanib ulg'aydi. U ilk ta'limni otasi Abdullohdan oldi. Alloma otasidan Qur'oni Karimdan, Navaviyning fiqhga oid “Minhoj at-Tolibiy” nomli asaridan, Imam Hofiz Jaloliddin Mahalliyning sharhlari bilan birga Ibn al-Vardiyning “Sharhul bahjatil Vardiyya” asarlaridan ta'lif olgan. Shuningdek, u imom Buxoriy va imom Muslim sahib hadis to'plamlaridan saboqlarni ham aynan otasidan o'rgangan. Alloma otasidan tashqari Shamsiddin Muhammad Qohiri, Muhammad al-Maxzumi, Ali Zakariyo al-Qohiri, Sa'duddin Sa'd ash-Shirvoni kabi ko'plab Misr, Makka, Madina, Hijoz, Damashq va boshqa diyor ulamolaridan ham saboq olib, yetuk faqih, tarixchi olim bo'lib yetishdi. Alloma ijodining yuksalishida sharq allomalarini bilan bir qatorda O'rta Osiyo allomalarining ham ta'siri beqiyos bo'lgan. Misol uchun Ali bin Abdulloh Samhudi Zamahshariyning “al-Kashshof” tafsiri, Umar an-Nasafiyning aqoidga doir asariga Sa'duddin Taftazoniy tomonidan yozilgan “Sharhi aqid an-Nasafiy” asariga, Ibn Hojibning sharhi kabi asarlarni ustoz Shamsiddin ash-Shirvoniyaning ta'lif olgan . Ali bin Abdulloh Samhudi mashhur ustozlardan ta'lif olgani singari, o'z davrida o'zi ham ko'pgina shogirdlarga ustozlik qilgan. Ulardan: Xalifa Abdurahmon Abu Sa'id va Abu Usmon al-Molikiy, Abdus-Salom ash-

Shofe’iy, Umar ash-Shofe’iy kabilar shular jumlasidandir. As-Samhudiy o’z davrida turli sohalardagi juda ko’plab asarlar muallifi bo’lib, ulardan: “Vafa ul vafa biaxbari dari al mustafa”, “Iqtifaул vafa biaxbari daril mustafa”, “Al-vafa bima yajibu lihazratil mustafa”, “Dafut-taarruz val inkar libasti ravzatil Muxtar”, “Javahir al-aqdayn”, “Al-fatava”, “Al-g’ammaz ‘alal-lammaz”, “Durrus-sumut”, “Al-anvarus-saniyya fi ajvibatil as’ilatil yamaniyya”, “Al-aq dul fariyd fi ahkomit-taqlid”, “Ifsoh fiy sharhil iyzoh”, “Al-lu’lu’ul mansur fi nasiyhati vulatil umur”, “Amniyatul mu’taniyn biravzatit-tolibiyin”, “Nasiyhatul-labib fi ziyaratil Habib” va “Xulasatul vafa biaxbari daril Mustafa” kabi ko’plab asarlar shular jumlasidandir. Samhudiy 921/yil zulqa’da oyining 18 kuni vafot etdi. Bu zotni Baqiyya qabristoniga Imom Molik Qabrlari orqasida dafn qildilar.

Ali bin Abdulloh Samhudiyning yuqorida aytilgan asarlari orasida “Xulasat ul vafa biaxbari daril Mustafa” nomli asari hozirgi kunga qadar Buxoro muzeyidagi qo’lyozmalar fondida ardoqlab saqlab kelinadi.

Asarda quyidagi mazmundagi tarixiy ma'lumotlar o’z aksini topgan: Madina shahrining 95 ismi va uning ma’nolari ochib berilgan. Shuningdek, Madina mevalari, ularning shifobaxsh xususiyatlari xususida: Madina xurmolarining turi o’rganilganda uning 130 ga yaqin turi mavjudligi aniqlangani ma'lumoti keltirilgan. Shulardan Sahihayn (ikki ishonchli hadis to'lamlari) da keltirilishicha, Muhammad Rasululloh “Kimki ettita ajva xurmosidan iste’mol qilib tong ottirsa, shu kuni unga hech qanday zahar va sehr ta’sir qilmaydi”, degan hadislari keltirilgan. Bundan tashqari Samhudiyning ushbu asarida madinaning ba’zi mevallari ko’z kasaliga shifo bo’lsa, ba’zilari tananing boshqa bir a’zolaridagi kasalliklarga shifoligi aniq sahih dalillar bilan keltirilgan. Asarda Madinada ta’qiqlangan ishlar va ularga oid ma'lumotlar. Misol uchun Madinada daraxtlarni kesish, hayvonlarni o’ldirish, ov qilish kabi ishlar ta’qiqlangani bayon qilingan. Undan tashqari Madina shahrining xususiyatlari, xalqiga xos odatlar va madina shahrining hurmati va qadri haqida ma'lumotlar berilgan. Mazkur asarda Muhammad Rasululloh qabrlarini ziyorat qilishning fazilatlari (“Kimki meni qabrimni ziyorat qilsa, qiyomat kunida unga shafoat qilaman”. Hadis), Muhammad Rasulullohni ziyorat qiluvchi kishi ziyorati paytida salovot aytib, duo qilib, Alloha iltijo qilganda Muhammad Rasulullohni vasila qilib ya’ni shu zotning nomlarini o’rtaga qo'yib duo qilib so'rashining fazilati haqida, Muhammad Rasululloh masjidlarining fazilati ya’ni ba’zi sahih hadislarda: Bir rakaat masjid an Nabaviyda o’qilgan namoz (Makkadan tashqari) boshqa masjidlarda o’qilgan ming rakaat namozning savobiga tengligi rivoyat qilingan.

Shuningdek, Muhammad Rasulullohning ravzalari va minbarlari haqida ham ma'lumotlar bayon qilingan. Asarda Nuh payg’ambar to’fonidan so’ng Madinaga kelib qolgan va unda yashagan aholi va xalqlar, ularning nasablari, makonlari, xalqlar-millatlar o’rtasidagi o’zaro ziddiyatlar va shu bilan bog’liq tarixiy ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, asarda Alloh Taolo Muhammad Rasululloh hurmatlaridan Madina xalqini ikrom-hurmatli qilgani, Madina ahlining Muhammad Rasulullohga Aqabadagi birinchi va ikkinchi bay’atlari, Muhammad Rasulullohni Madinaga hijratlari, Madinaning Qubo nomli manziliga to’xtashlari, so’ngra Madinaning ichkarisiga kirib Abu Ayyub al-Ansoriyining

uylariga to’xtashlari, Muhammad Rasululloh hijratlaridan vafotlariga qadar har bir hijriy sanada sodir bo’lgan voqeа va hodisalar tafsiloti, Muhammad Rasulullohning muborak masjidlarini qurilishi tarixi, masjidning o’z davridagi uzunligi (kattaligi), uning boshqa masjidlardan ajralib turuvchi jihatlari haqidagi ma'lumotlar ham sahif dalillar bilan yoritilgan. Asarda yana qiblaning o’zgarishidan avval va undan keyin Muhammad Rasululloh yuzlanib namoz o'qigan jihatlari ya'ni, Muhammad Rasululloh o'n olti oy davomida Baytul Muqaddas (Quddus) ga qarab namoz o'qiganlaridan so'ng Allohning amri bilan Ka'baga qarab namoz o'qish buyurilgani va shu bilan bog'liq ma'lumotlar, Muhammad Rasululloh masjidlaridagi minbarlari, masjidning baland ustunlari va shu bilan bog'liq ma'lumotlar aks etgan. Shuningdek, asarda Muhammad Rasulullohning hujra (xona) lari va u zotning qizlari Fotima r.a. ning hujralari, Masjid an-Nabiyl bino bo'lganidan so'ng Muhammad Rasululloh ehtiyojga qarab ayollari (va boshqalar) uchun alohida xonalar bino ettirganliklari va shu bilan bog'liq ma'lumotlar, Umar r.a. Masjid an-Nabaviyni kengaytirib, qo'shimchalar qilgani, Muhammad Rasululloh davrlarida masjid xom g'isht va xurmo shoxlaridan qurilganligi, Umar r.a. davrida esa, masjidning xurmo shoxlaridan bo'lgan ustunlari olib tashlanib, uning o'rniغا xom g'ishtdan ustunlar o'rnatganligi, so'ogra xalifa Usmon tomonlaridan Masjid an-Nabaviyga juda katta o'zgarish va qo'shimchalar qilingani. Jumladan; Hijriy yigirma beshinchi sanada Musulmonlar namoz o'qishlari uchun Masjid an-Nabaviy torliq qilayotgani hatto, juma kunlari jamoa masjididan tashqaridagi ochiq maydongacha to'lib namoz o'qiyotganlarini aytib, xalifa Usmonga shikoyat qildilar. Xalifa Usmon Muhammad Rasulullohning yaqin bo'lgan sahabalari bilan maslahatlashdilar. So'ogra ularning hammalari Masjid an-Nabiyni buzib, qaytadan kengroq qilib qurishga kelishdilar. So'ng xalifa Usmon peshin namozini jamoat bilan o'qib so'ng minbarga chiqdilar. Avval Allohga hamdu-sano va Muhammad Rasulullohga durudu-salovotlar aytgandan so'ng quyidagi so'zlarni aytdilar: “Ey insonlar, batahqiq men Muhammad Rasulullohning masjidlariga qo'shimcha qilib, kengaytirmoqchiman. Muhammad Rasululloh : “Kimki Allohning roziligi uchun bir masjid bino qilsa, Alloh u kishi uchun jannatda bir uy bino qiladi”, deganlariga guvohlik beraman. Mendan oldingi xalifa Umar rham unga o'zgartirishlar kiritgan edilar. Men ham ahli ray' bo'lmish sahabalar bilan maslahatlashdim va ular ham Masjid an-Nabaviyni yanada kengaytirishga rozi bo'ldilar, deganlarida musulmonlar jamoasi xalifa Usmonni qo'llab quvvatladilar va duolar qildilar. Shundan so'ng xalifa Usmon Masjid an-Nabaviy devorlarini bezakli (naqshli) g'ishtlar bilan, uning ustunini ham bezakli (naqshli) toshlar bilan , shift qismini esa, Hind emanidan va shunga o'xshash masjidning boshqa joylarida ham qo'shimcha va yangilanishlar qildirganlari haqida, so'ngi davrlar - Valid ibn Abdulmalik davriga kelib, masjidga mehrob, ayvonlar, minoralar qilinib, masjidda janoga namozi o'qishdan qaytarilgani va shu bilan bog'liq muhim ma'lumotlar, Valid ibn Abdulmalikdan so'ng Abu Ja'far Mansur, so'ng Mahdiy tomonidan masjidga qo'shimchalar qilingani va shu bilan bog'liq ma'lumotlar shular jumlasidandir. Yuqoridagilardan tashqari asarda Muhammad Rasulullohning muborak qabrlarini baland toshlar bilan o'rab olinishi, qabrlarida Muhammad Rasulullohning muborak bosh va yuzlarini ajratish uchun belgilar qo'yish va shu bilan

bog’liq ma'lumotlar berilgan. Muallif mazkur asarida o’z davridagi hukumdar Sulton Qayitboy (1468-1496) ning 881h (1476-1477yy) sanada Masjid an-Nabaviyga g’ishtdan qayta qo’shimchalar qilib, kengaytirishi, masjidning oldingi shiftini o’zgartirib, unga go’zal gumbazlar qurib, uning ko’rinishini yanada yaxshilash uchun chiqargan buyrug'i va uni bajarish uchun qilingan chora-tadbirlar hamda obodonchilik va qurilish ishlari haqida ma'lumotlar bergen.

Mazkur asarning keyingi sahifalarida Madinadagi Masjid an-Nabaviyda 654 hijriy sananining muborak ramazon oyini avvalgi jum'a kechasida sodir bo'lgan birinchi yong'in va 886 hijriy sanada sodir bo'lgan ikkinchi yong'in, uning sabablari, yong'in oqibatida masjididdagi minbar, masjidning eshiklari, alohida xonalari, masjid ayvonlari va yog'ochdan bo'lgan ko'pgina narsalar singari qadimgi kitoblar, mushaflar, maktublar va erga to'shalgan boshqa ashylarning yong'indan talofot ko'rishi va Madina amiri kelganidan so'ng kech bo'lsada Madinaning ko'pgina aholisi sa'yи harakati bilan yong'inlar bartaraf etilgani haqida va ikkinchi yong'indan so'ng o'sha davrdagi (XV asr) hukumdar Sulton Qaytboy tomonidan Masjid an-Nabaviyning qayta qurilishi, masjidni ustun va ayvonlar bilan o'rabi olinishi va shu singari bunyodkorlik ishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Asarda yana Muhammad Rasululloh masjidlariga Mahdiy tomonidan qo'shimchalar qilingandan so'ng masjidning eshiklari to'rtta bo'lganligi, so'ngi hukmdor Valid ibn Abdulmalik tomonidan masjid qayta qurilib, kengaytirilganda esa masjidning eshiklari yigirmata bo'lganligi ma'lumoti berilgan. Mazkur masjid eshiklari haqida ma'lumot berganda muallif eshiklarning nomlanishi, eshiklarning geografik joylashuvi, ularning yon taraf va qarshisidagi xonalar hamda shu bilan bog’liq ma'lumotlarni bayon qilgan. Masjid eshiklari haqidagi ma'lumotlardan so'ng Muhammad Rasululloh zamondoshlari, ba'zi tobe'inlar va ularning hovlilari haqida ham qisqa bo'lsa-da ammo muhim ma'lumotlar berilgan. Mazkur qismda Abdulloh ibn Umar, Marvon bin Hakam, Yazid bin Abdulmalik, Uvays bin Abu Sa'd, Ja'far bin Yahyo al-Barmakiy va Xolid bin Valid kabi jami 43 ta sahoba, tobein va ulardan so'ngi davr taniqli shaxslarining hovlilari, ularning ko'chalari haqida ma'lumotlar berilgan. Asarning keyingi sahifalarida Madinadagi qal'a-devorlar undagi bozorlar haqida, Muhammad Rasululloh masjidlarida iyd namozlarini o'qilishi, asar muallifi yashagan davr ya'ni XV asrga qadar ma'lum bo'lgan Madinadagi 55 ta masjidlar, Madinadagi qabristonlar, Uhud tog'ining fazilati va uerda shahid bo'lgan sahabalar, Baqe' qabristonida dafn etilgan Muhammad Rasulullohning ahli baytlari, ba'zi sahabalari, shahid bo'lgan taniqli shaxslar va ularning dafn etilgan joylari haqida ham etarlicha ma'lumotlar berilgan. Asarning keyingi qismlarida Madinadagi muborak quduqlar, buloqlar, Muhammad Rasulullohga mansub bo'lgan, u kishi o'z qo'llari bilan o'tqazgan ko'chatlari va shu kabi sadaqa-i joriyalari haqida, Muhammad Rasululloh safarlarda va g'azotlarda namoz o'qigan masjidlari haqida, misol uchun haj mavsumi va boshqa davrlarda Makkaga borganlarida namoz o'qigan yo'ltagi masjidlarning 28 tasi haqida va muallif yashagan (XV asr) davrlarda ham Makkaga borayotganda ziyoratchilar o'qiydigan yo'l atroflaridagi masjidlar haqida ham ma'lumotlar berilgan. Asardagi so'ngi bob va fasllarda Madinadagi Aqiq va boshqa vodiylar, ularning kengligi, chegaralari,

nomlanishi va aynan shunday nomlanish sabablari va shu bilan bog’liq ko’plab ma'lumotlar arab alfaviti tartibida nasriy va nazmiy usullardan foydalanib bayon qilingan. Va eng so’ngi fasllarda Madinadagi boshqa joylar,(erlar) makonlar va shu bilan bog’liq ma'lumotlar aks etgan. Kitobdagi matnlar ramkaga olinmagan, undagi “Bob”, “Fasl” va muhim sarlavhalar qizil siyohda yozilgan. Kitobdagi tarixiy voqealarni ifodalashda nasr bilan birga nazmiy usuldan ham foydalanilgan. Kitobning oxirgi sahifasida “Kolofon” i mavjud bo’lib, kolofonning atrofi qizil yirik nuqtalar bilan o’ralgan. Uning oxirgi varag’idagi kolofon qismi quyidagi jumlalar bilan yakun topadi.

Kitob asrlar davomida foydalanilgan bo’lib, insonlar tomonidan ko’p varaqlangani bois uning avvalgi (1,2,3) varaqlarida kirlanish va qora dog’lari mavjud. Kitobning 43 sahifasiga qadar qismi namning ta’siridan zararlangan. Kitob varaqlarining ba’zi qismlarida aylana va 2sm kattalikdagi teshikchalari ham ko’zga tashlanadi. Kitobning ba’zi varaqlaridagi matnlarning siyohlari yoyilgan va ba’zi joylarida yozuvlari xiralashgan (o’qish mushkul) holatda. Ali bin Abdulloh Samhudiy “Xulasatul vafa biaxbari daril mustafa” kabi asarlarini tasnif etishda turli sohalardagi, turfa mazmundagi asarlarni o’zida qamrab olgan ulkan kutubxona kitoblaridan foydalanganligi haqiqatdir. Bu asarlar orasida tarix, geografiya, Payg’ambarlar, sahobalar, olimlar va taniqli shaxslarning hayot yo’llari, tarjimai hollari va yashash tarzlari haqida ma'lumot beruvchi asarlar, qadimgi joylar, osori atiqalar haqida ma'lumot beruvchi asarlar, arab tili grammatikasi va adabiyotiga oid asarlar shuningdek, tafsir, hadis, aqoid, falsafa va fiqhiy asarlar kabi ko’plab sohalarni qamrab olgan manbalardan foydalangan. Xulosa qilib aytganda , Ali bin Abdulloh Samhudiyning insoniyat ilm fani rivojiga qo’shgan hissasi cheksiz. Uning ” Xulosatul vafa biaxbari daril mustafa” asari musulmonlarning muqaddas islom tarixi va Madina tarixiga bag’ishlab yozilgan kitoblar orasida yuqori o’rinda turishi buning isbotidir. Mana oradan olti asr vaqt o’tgan bo’lsa ham ”Xulosatul vafa biaxbari daril mustafa” asari o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Bu asar doimo izlanuvchilar uchun bitmas - tunganmas ilm manbai bo’lib xizmat qiladi va fanda yangi kashfiyotlar qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутки // Маърифат, 2017, 20 сентябрь

2. Ali bin Abdulloh Samhudiy. Xulosat ul vafo biaxbari dari almustafa. Damashq. 1998
- 3.Oltin silsila. Imom al Buxoriy. 23-kitob .1349 hadis.
- 4.Shaykhwaleed.com
- 5.aljazeera.net
- 6.hikmatlar.uz
7. Gazeta.uz